




PARLAMENTLARARO ALOQALAR JADAL RIVOJLANIB BORAYOTGANI ALOHIDA MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-iyul kuni Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo‘mitasi Raisi Chjao Leszi boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Xitoy parlamenti rahbari O‘zbekiston yetakchisiga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpingning salomi va eng egzu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda so‘nggi yillarda O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi do‘stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida Xitoyga davlat tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ostona shahridagi SHHT sammiti doirasida o‘tgan oliy darajadagi samarali muzokaralar natijalari mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishga yangi sur‘at bag‘ishlashiga ishonch bildirildi.

Xitoy O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish dasturini, shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi va “yashil” energetika sohalarda strategik hamkorlik dasturlarini qabul qilish rejalari qat‘iy qo‘llab-quvvatlayotgani tasdiqlandi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlarni tez fursatda boshlash muhimligi qayd etildi.

Jadal hududlararo aloqalarga yuqori baho berildi. Kelgusi yilda ikkinchi Hududlar forumi o‘tkaziladi.

O‘zbekistonda Xitoy oliy o‘quv yurtlarining filiallarini ochish, professional ta‘lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, Konfutsiy instituti

faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘rib chiqildi. Kelgusi yilda ikkinchi Ta‘lim forumini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Madaniyat va turizm sohalaridagi almashinuv yuzasidan fikr almashildi.

Parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish, parlament a‘zolari o‘rtasidagi aloqalarni faollashtirish va amalga oshirilayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonun ijodkorligi tajribasini o‘rganish zarurligi alohida ta‘kidlandi.

Ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish nazarda tutilgani qayd etildi.

O‘ZA

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

YANGI O‘ZBEKISTON – MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BIRDAMLIGI TASHABBUSKORI

Yangi O‘zbekiston dunyoda tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, o‘zaro munosabatlarda hurmat ruhini saqlagan holda global masalalarga yondashish, ishonch inqiroziga barham berish kabi tashabbuslarni eng ko‘p ilgari suruvchi, xalqaro huquqning faol va tashabbuskor subyekti sifatida e‘tirof etilmoqda.

Prezidentimizning yuksak minbarlarda turib bildirayotgan egzu g‘oya va tashabbuslari, tom ma‘noda, **xalqaro maydonda inson huquqi va manfaatlarini ta‘minlash, nizolarni tinch va o‘zaro hurmat ruhida hal etish borasida yangi muhit shakllanishiga xizmat qilmoqda.**

Ayniqsa, keyingi yillarda yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, o‘zaro birdamlik ruhini qator topirish, chegaralar daxlsizligi, faol iqtisodiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish borasidagi tashabbuslari yillar davomida o‘z yechimini topishi savol ostida qolgan qator muammolarni ijobiy hal etish, mintqa xalqlarining farovonligini ta‘minlash, ular o‘rtasidagi qarindoshlik, quda-andalik rishtalari yanada mustahkamlanishi, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi ortishi, yangi savdo yo‘laklari tashkil etilishi kabi jihatlar bilan tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi bilan amaliyotga joriy etilgan siyosiy platforma — **Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvi** natijasida Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro do‘stlik, hamjihatlik va ishonch ruhi tobora ortib bormoqda.

Mazkur maslahat uchrashuvlarini muntazam o‘tkazish tashabbusi Prezidentimiz

tomonidan 2017-yil 20-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. Mazkur platforma mintqa davlatlari rahbarlari o‘rtasidagi eng muhim ko‘p vektorli muloqot maydonidir.

Bugunga qadar besh marotaba maslahat uchrashuvi o‘tkazilgan. Unga doir tahlillarga ko‘ra, maslahat uchrashuvlari doirasida yillar davomida mintaqadagi munosabatlarning inqirozli jihatlari sifatida saqlanib kelgan quyidagi masalalar bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlarga erishildi:

Birinchi ijobiy o‘zgarish: davlat rahbarlari o‘rtasida samimiy muloqot o‘rnatildi, muloqotlar natijasida o‘zaro ishonchga asoslangan faol qo‘llab-quvvatlash muhiti shakllandi. Buni davlat rahbarlari o‘rtasidagi rasmiy va norasmiy tadbirlar doirasidagi o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va tushunishga asoslangan muloqotlar, imzolanyotgan ikki va ko‘p tomonlama hujjatlar misolida ko‘rish mumkin.

Ikkinchi ijobiy o‘zgarish: mintaqadagi o‘zaro qondosh va qardosh, birodar xalqlar o‘rtasidagi rishtalar yana bo‘y ko‘rsata boshladi. O‘zaro bordi-keldilar tiklandi, qarindoshlik, quda-andalik munosabatlarida

ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu esa o‘n yillar mobaynida hadik ostida qolgan qarindoshlik rishtalariga yangi hayot bag‘ishladi.

Uchinchi ijobiy o‘zgarish: chegaralar ochildi, sarhadlar daxlsizligini ta‘minlash borasida yakdill fikr shakllandi. Hatto chegaralardagi qurolli kuchlar xizmatchilari o‘rtasida ham iliqlik, bir-birini tushunish va hurmat ruhi paydo bo‘ldi. Mintqa davlatlari chegara hududida zamonaviy savdo-logistika markazlari va maxsus iqtisodiy zonalar barpo etilib, faol savdo-iqtisodiy munosabatlar o‘rnatildi.

To‘rtinchi ijobiy o‘zgarish: mintqa va xalqaro maydondagi munosabatlar yuzasidan yagona pozitsiya yuzaga keldi, mintaqadagi barcha davlatlar xalqaro huquqning yagona subyekti sifatida o‘zini namoyon eta boshladi va bu holat xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari tomonidan e‘tirof etilmoqda.

Beshinchi ijobiy o‘zgarish: mintqa tarix sahifalarida qolib, unutilayotgan “jahon savdosining beshigi” sifatidagi maqomini tiklay boshladi. Mintaqada yangi transport koridorlari va qulay logistika muhitini yaratish borasidagi tarixiy ishlarga qo‘l urildi.

Oltinchi ijobiy o‘zgarish: mintaqadagi o‘tkir ekologiya va energetika muammolari yuzasidan oqilona tarixiy yechimlar ishlab chiqildi. Xususan, qator energetika loyihalari, jumladan, Rog‘un GESi qurilishi, Qambarotadagi energetika loyihalari bo‘yicha yuzaga kelgan kelishmovchiliklarga oqilona yechimlar taqdim etildi.

Davomi 3-betda

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOYIY FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH “NURONIY” JAMG‘ARMASI FAOLLARINING NURONIYLAR, YOSHLAR VA BARCHA YURTDOSHLARIMIZGA MUROJAATI

Qadrlı hamyurtlar!
Muhtaram piri badavlat otaxon va onaxonlar!

Aziz farzandlarimiz!
Avvalo, Yaratganga behisob shukrlar bo‘lsinki, bugun biz sizlar bilan birgalikda tinchlik-osoyishtalikda, xalqimiz farovonligi, mahalla va oilalarimiz obodligi yo‘lida ulkan islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda yashab, umrguzaronlik qilmoqdamiz. Mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirish, yoshlar kelajagini ta‘minlash, ayniqsa, biz — keksa avlod vakillariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar har birimizning hayotimizni yanada fayzli va mazmunli etmoqda. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mahalla va oilalarda o‘zaro hamjihatlik, ahillik muhitini asrash, yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimiz, an‘analimizga hurmat ruhida, zamonaviy bilim va kasb-hunarlar egasi etib tarbiyalash, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yanada kuchaytirishda biz — keksa avlod vakillariga yuksak ishonch bilan qaramoqdalar.

Albatta, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan, oq-qorani ajrata oladigan, katta tajribaga ega bo‘lgan sizdek muhtaram otaxon va onaxonlar bizning bebaho boyligimizdir. Sizlarning foydali o‘git va nasihatlaringiz yoshlarimiz uchun doimo ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyoda turli notinchliklar, ziddiyat va to‘qnashuvlar kuchayib borayotgan bugungi g‘oyat murakkab zamonda kelajagimiz egalari

bo‘lgan yoshlarimizning tarbiyasi borasida zimmamizda qanday mas‘uliyatli vazifalar turganini albatta, barchamiz yaxshi tushunamiz. Afsuski, mana shunday tahlilali vaziyatda inson qalbini egallash, uni ruhiy-ma‘naviy muvozanatdan chiqarishga qaratilgan tahdid va xatarlar bizning hayotimizga ham xavf solmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlari, kiberjinoyat va zararli diniy oqimlar yoshlarimiz ongini zaharlashga urinmoqda. Bunday sharoitda farzandlarimizning yurish-turishidan doimo xabardor bo‘lib, hushyorlik va ogohlik bilan yashashni zamonning o‘zi talab etmoqda.

Avvalo, jondan aziz farzand va nevaralarimiz bilan do‘stona muloqot qilib, ularning eng yaqin sirdoshiga aylansak, ularning qalbini, ongini ezigulik, ilm-ma‘rifat, ota-ona, mahalla va Vatanga mehr-muhabbat bilan to‘ldirsak, hech shubhasiz, tarbiya masalasida jilovni mahkam qo‘lga olgan bo‘lamiz.

Har bir oilani ko‘z qorachig‘idek asrash — bizning ota-ona sifatidagi muqaddas burchimizdir. Zero, bitta oilaning parokanda bo‘lishi begunoh farzandlarning kelajagiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, xonadonlardagi notinchliklar jamiyat uchun katta ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi!

Qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar oqibatida nogiron va xasta farzandlar tug‘ilishi, milliy genofondimizga katta zarar yetishi ham hammamizga ayon haqiqat. Bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir yosh

oila, xonadonga kirib borib, ular bilan manzilli ish yuritishimiz zarur.

Azizlar, oilaviy zo‘ravonliklar, notinchliklar yoshlarimiz hayotida, jamiyatimizda tuzatib bo‘lmas muammolarni paydo qilishiga yo‘l qo‘ymaylik!

Mahallalardagi nogironligi bo‘lgan, og‘ir turmush sharoitida yashayotgan hamyurtlarimiz, qo‘ni-qo‘shnilarimiz holidan xabardor bo‘lib, ularni hech qachon mehr va e‘tibordan chetda qoldirmaylik!

Mehnat migratsiyasi bilan xorijga ketgan hamyurtlarimiz ham bizning jigarbandlarimiz. Ularning oilasi, ota-onasi bilan suhbatlashib, kasb-hunarsiz, til bilmaslik oqibatida sarson-sargardon bo‘lib yurganlarni yurtimizga qaytarib, “mahalla yetiligi” orqali ularni ishl bilan ta‘minlash choralarini ko‘raylik!


O‘zbekiston Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuzilgani, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari, tuman hamda shaharlarda esa “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilgani natijasida o‘zgalar ko‘magiga muhojir, qalbi o‘ksik insonlarning muammolariga yechim topilmoqda. Ana shunday hamyurtlarimizga pul va ehsonlar berish bilan birga, ularni qurbi yetadigan, sog‘lig‘i ko‘taradigan hunarga o‘rgatib, shu asosda bandligini ta‘minlab, ularda o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonchni shakllantirishga ham e‘tibor qarataylik!

Davomi 2-betda

Yangi O‘zbekiston ruhi

ILMIY SALOHİYATIMIZ IFODASI

TOSHKENTDA O‘ZBEKISTON OLIMLARINING “BUYUK AJDODLAR MEROSI – UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI” FORUMI O‘TKAZILDI



Anjuman O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O‘zbekiston madaniy merosini saqlash, o‘rganish va ommalashtirish bo‘yicha butunjahon jamiyati (WOSCU) tashabbusi bilan tashkil etildi.

Sharq tamaddunining oltin beshigi

O‘zbekiston bir necha ming yillik ulug‘vor va muhtasham tarixga ega. Moziyning turli davrida jahonshumul tamaddunlar, yirik saltanatlar, katta shaharlar va bebaho me‘moriy obidalar vujudga kelgan.

Davomi 6-betda

Taraqqiyot odimlari

BUNYODKORLIKLAR ODAMLAR DUNYOQARASHINI HAM O‘ZGARTIRMOQDA

Besh-olti yil avvalgiga qaraganda shaharu qishloqlarimizning nechog‘liq ko‘rkamlashib ketganini sezish uchun sinchkov bo‘lish shart emas. Bu o‘zgarishlar bir oz mulohaza qiladigan odamda hayrat uyg‘otishi tabiiy.

Davomi 2-betda





O‘ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOIV FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH “NURONIY” JAMG‘ARMASI FAOLLARINING NURONIYLAR, YOSHLAR VA BARCHA YURTDOSHLARIMIZGA MUROJAATI

Boshlanishi 1-betda

Har bir oilaning ichki imkoniyatlari ni yuzaga chiqarish, ayniqsa, **tomorqachilikni rivojlantirish, turli kasb-hunarlar orqali aholimizning daromad topishiga ko‘maklashish** ham dolzarb vazifamiz.

Tomorqa — beqiyos xazina ekanini yosh oilalar hayotiga singdirish uchun bu borada “ustoz — shogird” an‘analari ni hayotga keng tatbiq etaylik! Har bir xonadonda kattami-kichikmi issiqxonalar tashkil etib, pomidor, bodring, ko‘kat va limonlar parvarishlashni yoshlarga o‘rgataylik! Mehnat ortidan keladigan qut-baraka, baxtli va fayzli hayot qadri ni joylarda turli yig‘in va ma‘rakalarda, ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib etaylik!

Ko‘zimiz nuri, dilimiz g‘ururi bo‘lgan aziz yoshlar!

Muhtaram Prezidentimiz yaqinda Yoshlar kuni munosabati bilan sizlarga yo‘llagan tabrigida **“Yangi O‘zbekiston yoshlari”** degan sharafl i nonga har tomonlama munosib bo‘lgan yigit-qizlar bizning bebaho boyligimiz, oltin fondimizdir”, deb alohida ta’kid-ladi. Mehr va e’tiborga to‘la bunday so‘zlar zamirida sizlarga bo‘lgan katta ishonch mujassam. Bu ishonchni oqlash yo‘lida sizlar doimo oldinga intilib, zamonaviy bilim va kasb-hunarlar ni, xorijiy tillar ni, raqamli texnologiyalar ni puxta egallab, yoshlik ni g‘animat bilib, vaqtni qadrlab, el-yurtimizga astoydil xizmat qilishga hozirdan tayyor bo‘ling!

Hech qachon unutmang, haqiqiy baxt, avvalo, ona yurtga chin dildan xizmat qilib, uning mehrini, e’tiborini qozonishda namoyon bo‘ladi.

Yoshlar uchun bugungidek misl-siz sharoitlar ilgari hech qachon

bo‘lmagan! Yurtimizda hech qaysi avlod davlat rahbarining bunchalik mehri va e’tiborini his qilib yashama-gan! Bularning qadriga yeting!

Birgina yoshlarning daromadini oshirish maqsadida yer berish bo‘yicha joriy etilgan yangi tizim orqali bu yil 156 ming yoshga 60 ming gektar yer maydoni 30 yil muddatga ijaraga berildi. Azmu shijoatli yoshlarimiz ana shu imkoniyatdan unumli foydalanib, yaxshi natijalarga erishmoqda. Afsuski, bu imkoniyatdan yetarlicha foydalana olmayotgan yoshlar ham yo‘q emas. Ularda zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhtaram nuroniy-larimizning beg‘araz yordami juda muhim. Siz, aziz yoshlar, o‘zingizga ustozlik qilayotgan mo‘tabar keksalarning maslahatlariga amal qilsangiz, hech qachon kam bo‘lmaysiz. Chunki **hayotda ne-ne sinov va mashaqqatlarni ko‘rgan mehnat faxriylari, ustozlaringiz, bobo va momalaringizning tajribasi, ilmi va nasihatlari — o‘ziga xos akademiyadir.**

Qadrli ota-onalar, usta-hunarmandlar, bog‘bon va dehqonlar!

Yer bilan tillashishda, suvdan tejab-tergab foydalanishda yoshlarning maslahatchisi bo‘lib, yonida turib, ularga oltindan qimmat o‘g‘itlaringizni darig‘ tutmang! Ko‘zlari chaqnab turgan dilbandlarimizning milliy an‘analari-mizga, ana tuprog‘imizga mehr bog‘lashida, o‘ziga ishonchi, e’tiqodi mustahkam-lanishida kamarbasta bo‘ling!

Yoshlarni biz yetaklamasak, shubhasiz, boshqalar yetaklaydi. Ularni biz o‘qitmasak, boshqalar o‘qitadi. Farzandlarimizga yangi O‘zbekistonning taraqqiyot g‘oyalari ni, qadimiy tariximiz, boy madaniyatimizni aniq dastur-lar asosida, hayotiy misollar bilan sing-dirmas ekanimiz, ularga boshqalar o‘z mafkurasini tiqishtiradi. Bu — aniq.

Bugungi dunyo — shafqatsiz raqobat dunyosi. Yovuz kuchlar internet orqali milliy ma’naviyatimizga, qadriyatlarimizga, sharqona odob-axloqimizga mutlaqo yot bo‘lgan “madaniyat”larini yoshlarimiz ongiga sindirishga urinmoqda. Ularga o’zbekona madaniyat, o’zbekona ma’rifiy hayot, o’zbekona hamjihatlik qanday bo’lishini amaliy ishlarimiz bilan ko’rsatib qo’yaylik! Toki ular bu yurtda g‘oyaviy-ma’rifiy sohaning chinakam mard va bahodirlari bor-ligini bilsin va bundan xulosa qilsin!

Muhtaram otaxon va onaxonlar, mahalla faollari!

Bugungi nuri, fayzli hayotimiz, farzandlarimizning baxtiyor nigohlariga qarab, cheksiz shukronalar aytar ekan-miz, har birimizning qalbimizda yoshlik yillarimizdan qolgan mashaqqatlar og‘rig‘i, tabiiyki, bot-bot o‘zini sezdirib turadi. Bizning bolalik yillarimiz yoz chillasidagi jazirama issiqlar, kuzning izg‘irinli shamollari, dekabrning qahraton sovuqlarida paxta dalalarida o‘tmadimi? Soxta va balandparvoz shiorlarga aldanib, sovuqda tars yorilgan qo‘llari bilan ko‘sak chuvi b yurgan o‘quvchi va talabalar yoshlik zavqidan bebahra bo‘lmadimi?

Mana, bugun o‘sha azoblar ortda qolib, tarixga aylandi. Yurtimiz obod bo‘lib, yoshlarimizga beqiyos imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Ularning qalbida bugungi tinch va erkin hayotimiz uchun, xohlagan ilm va hunarni o‘rganib, ka-mol topishlari uchun, yaratilayotgan barcha imkoniyatlar uchun shukronalik hissini kuchaytiraylik! Zero, **bugungi kunni qadrlagan inson ertaga bundan ham yorug‘ va baxtli hayotga erishish uchun intilib yashaydi.**

Shu bois, mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlash

borasidagi ishlarimizni kuchaytirib, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari-ni samarasini oshiraylik! Oila — ma-halla — ta’lim muassasi hamkorligi-da, yoshlar masalalari bo‘yicha “ma-halla yetiligi” yordamida bu boradagi faoliyatimizni yangi bosqichga olib chiqaylik! Yoshlarimiz bilan uch avlod vakillarining uchrashuv va jonli mulo-qotlarini yanada ko‘proq tashkil etaylik!

Yangi O‘zbekistonga har tomonlama munosib bo‘lgan yosh avlodni tarbi-yalash bo‘yicha bir tanu bir jon bo‘lib ish olib boraylik! Bu borada muhtaram Prezidentimiz rahbarligida olib bo-rilayotgan ulkan sa’y-harakatlarga ka-marbasta bo‘laylik!

Doimo yodda tutaylik: yoshlari-miz — nafaqat umrimiz, ayni paytda bugun biz amalga oshirayotgan ulkan ish-larning ham davomchilar-idir. Yoshlarimiz — bizning qanday buyuk xalq ekanimizni jahon may-donida yaqqol namoyon etadigan tengsiz kuch, tengsiz qudratdir. Yosh-larimiz — sha’nimiz, g‘ururimizdir. Binobarin, bunday buyuk boylikni doimo asrab-avaylab, bugun va ke-lajak uchun ishlaydigan bebaho insoniy resursga aylantirish barchamizning muqaddas burchimiz va vazifamizdir. Bizning taqdirimiz va kelajagimiz, Vatanimizning obro‘-e’tibori ana shu vazifani qanchalik samarali hal etishimizga bog‘liq.

Aynan ana shunday ulug‘ ish-lar xalqimizni yanada birlashtirib, kuchli va qudratli qiladi, ko‘ksimizni tog‘dek ko‘tarib, umrimizni yanada mazmunli etadi.

Siz, azizlar ana shunday ezgu va oli-janob harakatda bor kuch-g‘ayratin-giz, bilim va tajribangiz bilan faol ishtirok etasiz, deb ishonamiz.

Qaror va ijro

YOSHLARNING CHO‘NTAGIGA DAROMAD

hayotiga halovat, ro‘zg‘origa baraka kirmoqda

Davlatimiz rahbarining joriy yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandlegini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yoshlarga yer ajratish bo‘yicha butunlay yangicha tizim joriy etilishiga zamin yaratdi.

Qaror ijrosi doirasida shu yilning o‘zida “mahalla yetiligi” tavsiyasi bilan mamlakat bo‘yicha 60 ming gektar yer 30 yilga ijaraga beriladigan bo‘ldi. Bunda viloyat hokimliklari xaxirasidagi yer maydoni elektron onlayn auksionga qo‘yilib, dehqon xo‘jaliklari tashkil etish uchun ijaraga beriladi. Davlatimiz rahbarining yaqinda Yoshlar kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigida ham bu haqda alohida qayd etildi.

— Qaror bilan yer ajratishda yangi tartib joriy etilgani yoshlar hayotida muhim o‘zgarish va tub burilish bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab olgan ushbu tizim viloyatimizda ham keng ko‘lamda tatbiq etilmoqda. Endi yoshlar dehqonchilik qilishi uchun “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga yer olishi va yaxshigina daromad topishi mumkin, — deydi Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqar-masi boshlig‘i Miraziz Mirsultonov. — Bu jarayon “mahalla yetiligi” tavsiyasi bilan shakllantirilgan ro‘yxatga kiritilgan yoshlar o‘rtasida “bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida yer maydonini ijaraga berish bo‘yicha elektron onlayn auksion orqali o‘tkazilmoqda. Auksion g‘oliblariga 10 yil muddatga teng ulushda foizsiz bo‘lib to‘lash imkoniyati ham berila-di. Muhimi, elektron auk-sion orqali ijaraga yer olgan yoshlar o‘zi ro‘yxatga kiritilgan ijtimoiy daftarlar-dan chiqarilmaydi. Ular qonunchilik-da belgilangan barcha imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish huquqi-ga ega. Asosiysi, ija-raga berilgan yerni suv bilan ta’minlash, sug‘o-rish tarmoqlarini tiklash, elek-tr energiyasi tortish, suv tejovchi texnologiyalar ni joriy etish borasida viloyat hokimining shaxsan o‘zi ijarachi yoshlarga yaqin ko‘makdosh bo‘lmoqda.

Ayni kunlarda viloyat yoshlari g‘alla hosilidan bo‘shagan maydonlarda sabzavot, poliz, dukkakli va boshqa ekinlarning tez-pishar navlarini qisqa muddatda ekish va parvarishlashga jiddiy kirishgan. Ularning yerdan samarali foydalanayotgani agentlikning “Yosh fermerlar” platformasi orqali nazorat qilib boriladi. Yosh dehqonlarning ishi viloyat hokimi, hudud sektor rahbarlari va “mahalla yetiligi” nazorati ostida har kuni tahlil etiladi. Mi-yonzoirxonning ham ayni kunlarda ruhiyati tetik, qadami shaxdam, kayfiyati chog‘. Chunki u endi nafaqat jamiyatga kerakli shaxs, balki ota-onasiga ko‘mak berib, ro‘zg‘orning kamini to‘ldirishda yaqin ko‘makchi bo‘ladi. Zangiota tumanining Qirguzar mahallasida yashovchi bu yigit tirishqoqliq, izlanuvchanligi bois, qo‘shni Madaniyat mahallasi hududidan yoshlarga ajratilgan

yerdan 30 sotixini auksionda yutib oldi.

— Oilada uch farzandimiz. Otam usta. Onam “Ayollar daftari”da ro‘yxatda turadi. Kontrakt asosida oliyogha kirganimda shartnoma pulini qanday to‘laymiz, deya o‘qishni istamaganman. Shunda onam “Bolam, bir iloji bo‘lib qolar, har qanday sharoitda ham o‘qimishli bo‘lishing shart”, deya qat’iy turib oldi, — deydi 24 yoshli Miyonzoirxon Miyonahadov. — Insonning omadi chopsa, oy ham zabt etiladi, degan gap aslida haqiqatga yaqin ekan. Hech qachon yerim bo‘ladi, dehqonchilik qilib pul topaman deb o‘ylamaganman. Ota-onam bilan maslahatlashib, 40 kunda hosilga kiradigan tez-pishar jo‘xori ekdik. Yaqin kunlarda hosilni yig‘ib olamiz. Bu yilgi kontrakt pulimning yarmi Qirguzar mahallasi yoshlar yetakchisi tavsiyasi asosida qoplab berilgan edi. Endi qolgan yarmini jo‘xoridan oladigan daromadim hisobidan to‘lamoqchiman. Maqsadim ota-onamga og‘irligimni tushirmay, el koriga yaraydigan farzand bo‘lish.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bir gektar yerdan kamida 25 ming dollar daromad olish im-koni mavjud. Buning uchun yerni tushunish va dehqonchilik ilmini bilish kerak. Shuning uchun ham bugun qo‘lida hunari yo‘q yoki doimiy daromadga ega bo‘lmagan yoshlar “bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida hosil yetishtiradi. Bu-ning natijasida mamlakatimizda ilg‘or, shijoatli yosh dehqonlar safi kun sayin ortib bormoqda.

— Yer beril-sayu, undan unumli va samarali foydalanilmay, yetarli darajada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilmay

qaqrab qolsa-chi? — deydi Miraziz Mirsultonov. — Shuning uchun davlatimiz yoshlarga avval yer ilmini o‘rgatib, dala ekinlarini ekish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirib, keyin yer bermoqda. Bu boradagi ishlarni bajarishda “mahalla yetiligi”ning hissasi katta. Ularning taklifi bilan “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turgan, o‘z ishiga va daromadiga ega bo‘lmagan, chet eldan qaytgan yoshlarga Toshkent davlat agrar universiteti professor-o‘qituvchilari mahsulot yetishtirish va parvarishlashdagi muhim jihatlar yuzasidan bilim va tavsiyalar bermoq-da.

Prezidentimizning qarori asosida hayotga tatbiq etilgan yangi tizim qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab olgani bilan yanada ahamiyatli. Yoshlar bandligi ta’minlanib, cho‘ntagiga daromad, hayotiga halovat, ro‘zg‘origa baraka kirib borayotir. Aslida, eng muhimi ham shu.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Taraqqiyot odimlari

Boshlanishi 1-betda

Bir-biridan ko‘rkam, salobatli binolar, uy-joylarni ko‘rib, ko‘zingiz quvonadi. Uni qurgan qurovchiga tasannolar aytgiz keladi. Qurilishi ham, dizayni ham bir-biriga o‘xshamaydi. Hududlarning geografik joylashuvi va tabiatiga mos ravishda qad rostlagani bilan bu binolar ko‘nglingizga huzur, zavq bag‘ishlaydi.

Aslida, oddiy imorat solishning ham o‘ziga yarasha mashaqqati bor. Osmono‘par binolarni-ku, aytmasa ham bo‘ladi. Qurilish sohasida mamlakatimizda yaxshi tajriba orttirildi. Birgina Jizzax viloyatining shaharu tumanlari ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turgan muhtasham binolarni ko‘rib, hayratingiz oshadi.

Qurilish tarmog‘i rivojlanmoqda, sohaga yangi innovatsiyalar, eng zamonaviy me’moriy yechimlar faol kirib kermoqda. Bugun mamlakatimiz ulkan qurilish va bunyodkorlik maydoniga aylangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kimdir tadbirkorlik qilib foyda ko‘raman, ham odamlarni ish bilan ta’minlayman, deb zavod, fabrika, korxona bunyod etayotgan bo‘lsa, kimdir aholini uy-joy bilan ta’minlash uchun yangi shinam massivlar qurmoqda. Eng asosiysi, ushbu ishlar natijasidan aholi mamnun. Kimdir ushbu bunyodkorlik ishlari sabab ishli, yana kimdir uyli bo‘lmoqda. Misol uchun, aholining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib hamda Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrda “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, hududlarda “Yangi O‘zbekiston” massivlari barpo etilmoqda. Ayni paytda Jizzax viloyatida uchta “Yangi O‘zbekiston” massivi qurilmoqda. Ularda 4700 xonadonga ega 156 ta ko‘p qavatli

uy quriladi. Ushbu qurilishlar natijasida qanchadan qancha odam ish bilan, yana qanchasi boshpana bilan ta’minlanmoqda.

Jumladan, Do‘stlik tumanining Chinobod massivida 1970-yillarda qurilgan barak tipidagi uylar o‘rni-da 11,5 gektar maydonida “Yangi O‘zbekiston” massivi bunyod etilmoqda. 1000 xonadonga mo‘ljallangan 50 ta ko‘p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan. 2025-yilgacha mo‘ljallangan qurilish loyihasi-ga ko‘ra, shu kungacha 160 fuqaro yangi uyga ko‘chib kirdi. Xonadonlarga o‘tgan hamyurtlarimiz ko‘ngillarini obod qilgan zamonaviy, ko‘p qavatli turar joylar tuman husniga ko‘rk bag‘ishladi.


“Yangi O‘zbekis-ton” massivida aholi uchun zarur barcha qulaylik va sharoit y a r a t i l m o q d a. Ayni paytda yana ikkita besh qavatli uy qurib bitkazildi.

Yana bir binoda esa tashqi fasad va ichki pardo-zlash ishlari davom etmoqda.

Aholining kam ta’minlangan qatlami, yosh oilalar uchun mana shunday arzon va shinam uy-joylar qurish dasturi izchil amalga oshirilayotganidan odamlar mamnun.

— Vatan ichra vatanli bo‘lganimdan xursandman, — deydi Do‘stlik tumani Chinobod mahallasidagi “Yangi O‘zbekis-ton” massivida yashovchi Farhod Karimov. — Qurilish sohasida ishlayman. Ilgari barak tipidagi ikki xonali uyda uchta oila — o‘n kishi tiqilib yashardik. Bugun har birimizning alohida shinam, barcha sharoitga ega uyimiz bor. To‘g‘risi, hozirgi daromadim bilan uy olishni xayolimga ham keltirmagan edim. Uydagi holat bolalar kayfiyatiga ham ta’sir qilarkan. Yangi uyga

“AHOLINING KAM TA’MINLANGAN QATLAMI, YOSH OILALAR UCHUN MANA SHUNDAY ARZON VA SHINAM UY-JOYLAR QURISH DASTURI IZCHIL AMALGA OSHIRILAYOTGANIDAN ODAMLAR MAMNUN.**”**



Zoir ERGASHEV,
jurnalist



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Davlatimiz rahbari joriy yil 3-4-iyul kunlari SHHT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ham tashkilot doirasidagi muloqotni yanada rivojlantirish, hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ezgu tashabbuslarni ilgari surdi.

2024-yil 9-iyul, 136-son

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

YANGI O‘ZBEKISTON — MARKAZIY OSIYO
DAVLATLARI BIRDAMLIGI TASHABBUSKORI

Akbarshoh TESHABOYEV,
O‘zFA Davlat va huquq instituti bo‘lim boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, huquqshunos-tahlilchi

Boshlanishi 1-betda

Yetinchi ijobiy o‘zgarish: mintaqada ilm-fan, san‘at, sport, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida oldin mavjud bo‘lmagan mutlaqo yangi madaniy-gumanitar platformalar shakllandi. Tarixi, an‘analari o‘xshash, birodar xalqlar o‘rtasida yoshlar forumlari, faol ayollar muloqoti, madaniyat kunlari, sport turnirlari tashkil etilishi o‘zaro ishonchni mustahkamlamoqda.

Barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdor.

2017-2024-yillarda Prezidentimiz tomonidan mintaq va global doiradagi nufuzli xalqaro tadbirlarda *Markaziy Osiyoda birdamlikni mustahkamlash, ahil qo‘shnichilik munosabatlari*ni yanada rivojlantirishga qaratilgan tarixiy tashabbuslar ilgari surib kelinmoqda.

*Birinch*i birdamlik tashabbusi: “**Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik**” mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro anjumanni o‘tkazish.

Ushbu tashabbusning ijobiy jihatlarini quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

*birinch*idan, konferensiyadagi tashabbuslar tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqargan holda, mintaq davlatlarini Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan tarixiy chorlov bo‘ldi. Konferensiya yakunida “**Xavfsizlikka tahdidlarni o‘zini**ki va o‘zgalarniki” deb ajratishdan voz kechilib, “**yaxlit xavfsizlik**” tamoyiliga amalda rioya qilish” pozitsiyasi belgilandi.

Konferensiya doirasida “**O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston tomonidan Davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududi haqida**” shartnoma imzolangan fikrimiz dalildir. Mazkur shartnoma muddatsiz bo‘lib, denonsatsiya qilinmasligi, uch qo‘shni davlat o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir;

*ikkinch*idan, mintaqani taraqqiy ettirishda aynan qaysi sohalarini rivojlantirish zarurligi bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Xususan, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, kooperatsiyani mustahkamlash, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini uzil-kesil yakuniga yetkazish, ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etdi;

*uchinch*idan, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasida madaniy-gumanitar aloqalar, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari mustahkamlash bo‘yicha qator kelishuvlarga erishildi.

Ikkinchi birdamlik tashabbusi: **Markaziy Osiyo hududlari forumini o‘tkazish.** Mazkur tarixiy tashabbus Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to‘rtinchi maslahat uchrashuvida bildirilgan bo‘lib, mintaqada iqtisodiy, savdo, investitsiyaviy va ijtimoiy sharoitning drayver tarmoqlarini rivojlantirishda dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Markaziy Osiyo hududlari forumining o‘tkazilishi:

birinchi natija: **hududlararo to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlik o‘rnatilishiga** xizmat qildi. Jumladan, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Xiva, Jizzax, Sirdaryo va qo‘shni davlatlarning Olmaota, O‘sh, Dushanbe, Xatlon, So‘g‘d, Ashxobod kabi hududlari o‘rtasida keng ko‘lamli iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar aloqalar o‘rnatildi. Buning natijasida ko‘plab qo‘shma loyihalar amalga oshirilib, yangi qo‘shma korxonalar ochilmoqda;

ikkinchi natija: forumlarning o‘tkazilishi mintaqada **yagona qulay ishbilarmonlik muhiti yaratishga** xizmat qildi. Bugun qishloq

xo‘jaligining qator sohalari: boshqoli don, yog‘moy va ozuqa ekinlari, sarxil va qayta ishlangan meva-sabzavot hamda go‘sht-sut va ko‘plab boshqa mahsulotlarni yetishtirish va ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma klasterlar tashkil etilmoqda;

uchinchi natija: forumlar doirasida **mintaqadagi ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha oqilona yechimlar** ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, muqobil energetika, suv, quyosh va shamolning elektr olishni jadal rivojlantirish, elektr energiyasini o‘zaro yetkazib berishni tashkil etish, suvni tejaydigan va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish mintaqada “yashil taraqqiyot”ga erishishda muhim omil bo‘lmoqda.

Uchinchi birdamlik tashabbusi: **Markaziy Osiyo yoshlar forumini o‘tkazish.**

Mazkur ezgu tashabbus mintaqada yoshlarga doir siyosatning umumiy yo‘nalishlari ishlab chiqilishi, yoshlar uchun zarur imkoniyatlar yaratilishini ta‘minlamogda.

Shuningdek, Yoshlarga doir siyosatning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risida ko‘p tomonlama bitimni tayyorlash tashabbusi va ushbu yo‘nalishdagi 10 ga yaqin boshqa tashabbusning amalga oshishi yoshlar siyosati birlamchi va ustuvor mintaqaviy masala sifatida o‘rnatilishiga xizmat qildi.

Faol tashqi munosabatlar

Yurtimiz bugun faol tashqi munosabatlar markaziga aylanib bormoqda. Buni rivojlangan xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlarining mamlakatimizga tashrifi misolida ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yil iyunda **Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol, Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyun Xurelsuxning** davlat tashrifi, **BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning** rasmiy tashrifi juda katta ijobiy natijalar keltirdi.

Jumladan, Koreya Respublikasi bilan strategik sheriklik yanada chuqurlashdi. Ushbu davlat Prezidentining yurtimizga tashrifi ikki tomonlama strategik munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Bu holatni tashrifning muhim jihatlarini bilan asoslash o‘rinlidir;

*birinch*idan, tashrif doirasida Alohida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va har tomonlama kengaytirish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot imzolandi;

*ikkinch*idan, har ikki davlat va xalqlar uchun muhim bo‘lgan sohalar: farmatsevtika, transport, madaniyat, qishloq xo‘jaligi, kadrlar tayyorlash, banklar faoliyatini rivojlantirish, savdo-iqtisodiy sohalar bo‘yicha jami 17 ta **hujjatlar paketi** imzolandi;

O‘zbekistonning BMT faoliyatidagi jonkuyar tashabbuskorligi va faolligi ijobiy natijasidir. Jumladan, so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 10 ta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilingani ushbu tashkilot faoliyatida doim ham uchramaydigan tarixiy natijadir.

*uchinch*idan, tashrif doirasida “**Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi**” formati doirasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish istiqbollari yuzasidan muhokamalar o‘tkazildi;

*to‘rtinch*idan, tashrif davomida drayver sohalar: biznes jarayonini autorsoring qilish, sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi;

*beshinch*idan, muzokaralar davomida 2025-yilni “**O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi o‘zaro almashinuvlar yili**”, deb e‘lon qilish qayd etildi. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tizimli rivojlantirishda yillarga nom berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu amaliyot hamkorlikni oldindan tasdiqlangan “yo‘l xaritasi”lari asosida yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi hozirgi munosabatlarni “ikki mamlakatning yuqori texnologiyali va innovatsion hamkorligining yangi davri”, deb aytishga asoslar yetarli.



Mo‘g‘uliston Prezidentining yangi O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston davlati tarixiy hamkorligi tiklanishiga asos bo‘lgan davlat tashrifi doirasida Toshkentda ushbu davlat elchixonasining rasman ochilgan, **14 ta muhim hujjat** imzolangan mo‘g‘ul va o‘zbek xalqlari o‘rtasida tarixiy hamkorlikka yangidan hayot baxsh etdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Shuningdek, tashrif davomida hukumatlarga tovar ayirboshlash hajmini oshirish masalalari bo‘yicha qo‘shma ishchi guruh tuzish, Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish, Ulan-Bator va Toshkentda rasmiy savdo uylari ochish, “halol” standartlariga muvofiq go‘sht mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha klaster tashkil etish, Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimni imzolashga tayyorlash hamda bozorlarga kirish sharoitlarini o‘zaro yengillashtrish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Yangi O‘zbekiston — BMT munosabatlari yangi bosqichda

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning davlatimizga tashrifi quyidagi ramziy ma‘nolarga ega:

*birinch*isi, bosh kotibning kamdan-kam kuzatiladigan tashrifining O‘zbekistonga bo‘lishi, avvalo, **yurtimizdagi ortga qaytmas**



islohotlarning BMT tomonidan yuksak e‘tirof etilishidir;

*ikkinch*isi, O‘zbekistonning BMT faoliyatidagi jonkuyar tashabbuskorligi va faolligi ijobiy natijasidir. Jumladan, so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 10 ta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilingani ushbu tashkilot faoliyatida doim ham uchramaydigan tarixiy natijadir;

*uchinch*isi, tashrif O‘zbekistonning jahondagi muammolarni o‘zaro kelishgan holda hal etish bo‘yicha BMTning hal qiluvchi organ sifatidagi maqomini yanada mustahkamlash borasidagi sa‘y-harakatlarga nisbatan munosib ijobiy javobidir.

Bosh kotibning ikkinchi tashrifi doirasida yurtimizda yuritilayotgan oqilona siyosat, mintaqadagi o‘zaro do‘stlik va ahillik ruhini qaror toptirish borasidagi tarixiy sa‘y-harakatlar e‘tirof etilib, yuksak baho berilgani barchamizni shu vatan fuqarosi sifatida faxrlantiradi.

O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi munosabatlar yanada rivojlanib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan:

mamlakatimiz ilk marotaba 2024-yil iyunda **BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC) tarkibiga va Xalqaro mehnat tashkiloti Ma‘muriy kengashiga** saylandi;

O‘zbekiston vakili **birinchi marta BMT Inson huquqlari qo‘mitasi a‘zosi** bo‘ldi;

Toshkentda BMTning **Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro jamg‘armasi vakolatxonasi** ochildi;

O‘zbekiston va BMT hamkorligi doirasida **140 ta qo‘shma dastur va loyiha** amalga oshirilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich bilan mamlakatimiz mintaqadagi ilg‘or davlatdir.

Davlatimiz rahbari babs va mojarolarni hal etish, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha maqbul yechimlarni izlash va qarorlarni qabul qilishda “**Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy o‘rin egallashi kerak**” degan prinsipial pozitsiyani ilgari surib kelayotgani xalqaro maydonda o‘zaro munosabatlarni tizimli hal etish yondashuvini joriy etish hamda ushbu jarayonda BMTning rolini yanada mustahkamlashga xizmat qilib kelayotir.

SHHT makonida hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha dadil qadamlar

SHHT Yer sayyorasi aholisining qariyb yarmini o‘zida birlashtirgan eng yirik mintaqaviy tashkilot. Jonajon yurtimiz tashkilot doirasida o‘zaro ishonch ruhini mustahkamlash va barcha ishtirokchilarni global kun tartibidagi masalalar yuzasidan yakdli yondashuvga chorlovchi mamlakat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahillarga ko‘ra, 2017-2024-yillarda davlatimizning SHHT doirasidagi munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiquvchi aniq yo‘nalishlar borasidagi tashabbus va takliflarini e‘tirof etish o‘rinli.

Birinchi muhim yo‘nalish: **SHHT doirasida ishonch kayfiyatini barqarorlashtirish va hamijhatlikni mustahkamlash borasidagi tarixiy tashabbuslar.** Ushbu yo‘nalish doirasida davlatimiz rahbari 10 ga yaqin tashabbusni ilgari surgan.

SHHTning yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tashabbusi shular jumlasidan.

SHHTning yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tashabbusi shular jumlasidan.

Ikkinchi muhim yo‘nalish: **tashkilot doirasida yangi iqtisodiy munosabatlar va zamonaviy iqtisodiy qadriyatlarini yaratish borasidagi tashabbuslar.** Mazkur yo‘nalishda ham 10 ga yaqin tashabbus va taklif ilgari surilgan. Jumladan, SHHTning o‘zida asosiy 6 ta muhim, istiqbolli sohani qamrab olgan **Yangi iqtisodiy muloqot dasturini** qabul qilish, **a‘zo davlatlar o‘rtasida innovatsion sheriklik haftaliklarini** o‘tkazishga oid takliflar tashkilot makonida yangi iqtisodiy asoslar yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Uchinchi muhim yo‘nalish: **SHHT makonida sof ekologik muhitni yaratishga qaratilgan tashabbuslar.** Davlatimiz rahbari SHHT va boshqa mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi muloqotlarda doim 5 ta muhim yo‘nalish: ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish, bioxilma-xillikni saqlash, suvdan foydalanishda tejamkor texnologiyalarni joriy etish, tog‘ ekotizimlarini saqlash, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish doirasida barchani faollikka chorlaydi.

Ushbu masalalar yuzasidan o‘tgan yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan **Mintaqaviy ekologik loyihalar**ni qo‘llab-quvvatlash va “**yashil**” texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda **SHHTning Iqlim kengashini** tuzishga doir tashabbus SHHT makonida iqlim o‘zgarishiga moslashish, “toza” texnologiyalarni joriy etish, “aqlli” qishloq xo‘jaligi va suvdan tejamkorlik bilan foydalanishni rivojlantirish borasida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchi muhim yo‘nalish: **tashkilot doirasida samarali transport koridorlarini tashkil etishga doir tashabbuslar.** Ushbu yo‘nalish

Tarixda ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT minbarida turib, yuksak siyosiy iroda va jasorat bilan quyidagi masalaga jahon davlatlari yetakchilari e‘tiborini qaratdi: “Afg‘onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlarini bu yurtdagi o‘tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqish kerak”. Ushbu tashabbus yana bir bor afg‘on xalqi va yoshlari uchun porloq istiqbolni taqdim etishga xizmat qilishi dunyo hamjamiyati tomonidan e‘tirof etildi.

doirasida quyidagi strategik takliflar bildirilganini qayd etish o‘rinli:

Tashkilotga a‘zo davlatlar tomonidan “**Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar**” temir yo‘li qurilishini qo‘llab-quvvatlashga doir tashabbus;

SHHT davlatlarining transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqligiga doir yagona xaritani ishlab chiqish;

BMT shafeligida O‘zbekistonda **Mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlik markazini tashkil etishga** doir takliflar SHHT makonida o‘zaro integratsiyalashgan transport-tranzit tizimini shakllantirishda ahamiyatlidir.

Mazkur tashabbuslar istiqbolda, tom ma‘noda, “Samarqand ruhi” SHHT doirasidagi sheriklikning prinsipial jihatdan yangi formatini shakllantirishda muhim asos bo‘lishi, SHHT mintaqasida tinchlik, barqarorlik va farovonlikni ta‘minlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Beshinchi muhim yo‘nalish: **Afg‘onistonda tinchlik hukm surishi, uni o‘z muammolari bilan yolg‘iz qoldirmaslikka doir tashabbuslar.**

Prezidentimiz BMT, SHHT, IHT, “Markaziy Osiyo plyus” formati va boshqa tuzilmalarda dunyo e‘tiborini Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash masalasiga qaratib kelmoqda. Jumladan, Afg‘oniston hukumati bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish, “SHHT — Afg‘oniston” muloqot guruhi shaklidagi maslahatlashuvlarni qayta tiklash bilan bog‘liq takliflar ahamiyatlidir.

Tarixda ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT minbarida turib, yuksak siyosiy iroda va jasorat bilan quyidagi masalaga jahon davlatlari yetakchilari e‘tiborini qaratdi: “**Afg‘onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlarini bu yurtdagi o‘tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqish kerak**”. Ushbu tashabbus yana bir bor afg‘on xalqi va yoshlari uchun porloq istiqbolni taqdim etishga xizmat qilishi dunyo hamjamiyati tomonidan e‘tirof etildi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 3-4-iyul kunlari SHHT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ham tashkilot doirasidagi muloqotni yanada rivojlantirish, hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ezgu tashabbuslarni ilgari surdi.

Takliflarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning 6 tasi xalqaro normativ huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat: 1 tadan kodeks, xalqaro bitim, dastur va “yo‘l xaritasi” hamda 2 ta kompleks reja. Tashkiliy-huquqiy ahamiyatga ega 4 ta taklif, jumladan, SHHT jamg‘armasi va Taraqqiyot bankini tashkil etish, “SHHT — Afg‘oniston” muloqot guruhi faoliyatini qayta tiklash, “SHHT oziq-ovqat xavfsizligi atlasi” qo‘shma elektron platformasini ishlab chiqish, “Sharq — G‘arb” va “Shimol — Janub” yo‘nalishlari bo‘yicha inklyuziv transport tizimlarini shakllantirishga doir takliflar bildirildi.

Ushbu takliflar Prezidentimiz SHHT doirasidagi oldingi majlislarda bildirgan tashabbuslar doirasidagi ishlarni davom ettirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega.

*Birinchi*dan, SHHTning Yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini qabul qilish masalasi yana bir bor eslatildi. Ushbu kodeksning qabul qilinishi quyidagi ijobiy jihatlariga ega:

birinchi ijobiy jhati: unda SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlari o‘rtasidagi muloqotni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi va ustuvor qoidalar belgilandi;

ikkinchi ijobiy jhati: kodeks o‘zida ko‘p tomonlama hamkorlikning muhim yo‘nalishlari: savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar, umumiy xavfsizlik, qishloq xo‘jaligi, ekologik tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish, samarali transport koridorlari tashkil etish kabi muhim yo‘nalishlar doirasida davlat rahbarlari, hukumatlararo va hududlararo aloqalarning huquqiy asoslarini mujassam etadi.

*Ikkinch*idan, SHHT doirasida savdo jarayonlarini soddalashtirish bo‘yicha bitimni ishlab chiqish taklifi ham juda muhim. Mazkur bitimning qabul qilinishi qator ijobiy natijalari bilan ahamiyatli:

— bitim asosida SHHT makonida o‘zaro savdodagi to‘siqlar bartaraf etilishiga erishiladi. Bu holat a‘zo mamlakatlarning tadbirkorlari va ishbilarmon doira vakillari uchun yangi imkoniyatlar ochadi, iste‘molchilar uchun esa arzon va sifatli mahsulotlar soni ko‘paydi;

— bitim asosida texnik reglamentlar va sertifikatlash, fito-sanitariya va veterinariya nazorati tizimidagi qoidalar o‘zaro moslashtirilib, yengilliklar taqdim etiladi;

— ma‘muriy bojxona tizimida yangi qulayliklar yaratiladi.

*Uchinch*idan, o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishga doir taklif global YAIMning chorak qismidan ko‘prog‘iga egalik qilayotgan davlatlarda ishlab chiqarish yanada rivojlanishi, SHHT makonidagi xalqlar farovon bo‘lishini ta‘minlaydi.

*To‘rtinch*idan, logistika jarayonini raqamlashtirish rejasini ishlab chiqish taklifi o‘zaro tovar ayirboshlash, mahsulotlarni arzon narxda bozorlarga yetkazish orqali iste‘mol talabini qondirishda ijobiy natijalarni beradi.

Ushbu reja SHHT makonida tovarlar tashish borasida ochiqlik va shaffoqlikni ta‘minlash, axborot almashinuvi tezkorligini ta‘minlash, o‘zaro transport tashish xizmatlarini tezkor yo‘lga qo‘yish va masofadan turib kuzatish imkonini beradi.

*Beshinch*idan, “SHHT kelajak texnologiyalari” dasturini ishlab chiqish taklifi ham qator muhim jihatlariga ega:

— dastur tashkilotning zamon bilan hamnafas rivojlanishini kafolatlaydi;

— raqamli iqtisodiyotga o‘tish, sun‘iy intellekti, ilg‘or AT qarorlari joriy etishda tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, nutqda ta‘kidlanganidek, ijtimoiy sohada hamkorlikka doir “yo‘l xaritasi” va “yashil” energetikani jadal rivojlantirish bo‘yicha katta dasturni qabul qilish ikki muhim soha bo‘yicha ishlar tizimli tarzda rivojlanishi va sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Prezidentimiz o‘z nutqida ishonch inqirozi tobora avay olayotgan tahlikali vaziyatda SHHT makonida o‘zaro umumiy xavfsizlik va taraqqiyot yo‘lida birlashish muhim ekanini qayd etdi. Afg‘onistondagi vaziyatni yumshatish, “SHHT — Afg‘oniston” muloqot guruhi faoliyatini tiklash mavjud xavf-xatarlarning oldini olishda o‘zaro kelishgan holda do‘stona munosabat bilan kun tartibidagi masalalarga yondashishni taqozo etadi.

Mazkur tashabbuslar istiqbolda, tom ma‘noda, “Samarqand ruhi” SHHT doirasidagi sheriklikning prinsipial jihatdan yangi formatini shakllantirishda muhim asos bo‘lishi, SHHT mintaqasida tinchlik, barqarorlik va farovonlikni ta‘minlashga xizmat qilish shubhasiz.



Yangicha yondashuvlar

XONADONBAY LOYIHA

Olimlar va aholi hamkorligi yuqori samaradorlikka xizmat qilmoqda

Shahnoza ERGASHEVA,
Qishloq xoʻjaligida bilim va
innovatsiyalar milliy markazi
boʻlim boshligʻi

Ushbu loyihalar doirasida olimlar va xonadon egalari hamkorlikda ishlab, yakunda aniq ilmiy natija va salmoqli daromadga ega boʻladi. Bu davlatimiz rahbarining tomorqa egalari va mahalla faollari bilan subbat jarayonidagi "Endi davlat idoralarining butun imkoniyatlarini har bir koʻchaga, xonadonga olib kiramiz... Maqsadimiz xalqning daromadini oshirish, boy qilish. Albatta, oson boʻlmaydi. Bu mashqatli mehnat, tinimsiz izlanish, yangi-yangi gʻoyalarni degani. Lekin bajarsa boʻladi...", degan fikrlariga hamohangdir.

Xonadonbay usulda bajariladigan loyihalar agrar sohada tomorqa yer egalari va dehqon, fermer xoʻjaliklariga ajratilgan yerdan samarali foydalanish, dehqonchilik amaliyoti va ilmiy tadqiqot ishlarini mustarak holda rivojlantirish, aholi tomonidan yetishtiriladigan ekinlarning mahalliy shart-sharoitlarga mos urugʻchilik tizimini takomillashtirish, ulardan yuqori hosil olinishini taʼminlash, pirovardida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish koʻlamini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday loyihalarning afzalligi shundaki, u olimlar erishgan ilm-fan yutuqlarini tezkorlik

Davlatimiz rahbari joriy yil Sirdaryo viloyatiga tashrifi chogʻida Sayxunobod tumanidagi Ittifoq mahallasida boʻlib, bu yerda aholi tomorqalaridan yuqori hosil olishga qaratilgan ilgʻor tajriba bilan tanishgan va ushbu tajribani mamlakat miqyosida keng tatbiq etish yuzasidan topshiriqlar bergan edi. Mazkur topshiriq ijrosini taʼminlash maqsadida Qishloq xoʻjaligi vazirligi hamda vazirlik huzuridagi Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirishning yangi — xonadonbay tizimi yoʻlga qoʻyildi.

bilan amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Deylik, bir olim pomidorning yangi navini yaratdi. Bu navni dehqonlar oʻrtasida targʻib qilish, ishonchini qozonish va birlamchi urugʻchilgini yoʻlga qoʻyish ancha qiyin masala. Taklif etilayotgan loyihalarda olim oʻzi yaratgan nav urugʻlarini xonadonlarga tarqatadi, yil davomida tomorqa egalari bilan ishlab, maslahat berib boradi.

oylik ajratiladi. Shu bilan birga, kelgusida qishloq xoʻjaligi ilimga qiziqishini oʻrtirib, bu boradagi ishlarni davom ettirishiga ham turtki beriladi.

Odamzod qulogʻi bilan eshitganiga emas, koʻproq koʻzi bilan koʻrganiga ishonadi. Mahalladoshining xonadonbay loyihalarda ishtirok etib, yuqori hosil va daromadga ega boʻlganiga guvoh boʻlgan



Tomorqachi esa urugʻ sotib olish uchun ortiqcha xarajatdan qutuladi, kasallikka qarshi qanday kurashish, qachon suv berish, qanday agrotexnologiyalarni amalga oshirish kerakligi boʻyicha ilmiy asoslangan maʼlumotlar oladi. Yakunda olim oʻz navini sinovdan oʻtkazadi, targʻib qiladi, urugʻini koʻpaytirishga muvaffaq boʻladi. Xonadon egasi esa yuqori daromad va urugʻlikka, dehqonchilik haqida yangi bilimlarga ega boʻladi. Tomorqa egalardan bir kishi loyiha ijrochilari tarkibiga jalb etilib, unga

qoʻni-qoʻshnilar bu tajribani oʻz tomorqalarida ham bajonidil tatbiq etadi.

Tanlov eʼlon qilingach, milliy markaz tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari tomonidan yurtimizning turli hududida amalga oshirishga qaratilgan 52 ta loyiha shakllantirildi. Ularning har biri 10 tadan 20 tagacha xonadonni qamrab olgan, olimlar aholi tomorqalariga hudud sharoitiga mos yangi nav, agrotexnologiya va ishlanmalar bilan kirib bormoqda.



"Krimskiy-5" payvandtagida standart talablariga mos koʻchat yetishtirish, koʻchachilikni yoʻlga qoʻyish va xonadonlar daromadini oshirish loyihasi bogʻdorchilik, Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining Gʻallaorol tumani xonadonlarida chorva ozuqasi uchun tritikalening "Doʻstlik-4",



arpaning "Mushtarak" navlarini gidroponika usulida yetishtirish orqali toʻyimli ozuqa manbasini tayyorlash boʻyicha yangi ishlanmalarni tomorqa xoʻjaliklariga tatbiq etish loyihasi lalmikor sharoitida chorvachilik rivojiga xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimizda issiqxona xoʻjaliklarini tashkil etish va qishin-yozin hosil yetishtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Biroq turli viloyatlar tuproq-iqlim sharoitiga mos issiqxonalarning maqbul standartlari hanuz ishlab chiqilmagan.

Har bir oila – tadbirkor

Surxondaryo viloyatidagi 724 mahalladan 575 tasi aynan keyingi yillarda hudud imkoniyatidan kelib chiqib, muayyan mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirildi. Yana oʻsha gap — boʻlar ekan-ku! Uzoq yillar viloyat va tumanlarda hudud iqlimi, sharoiti, resurslari hisobga olinmagan holda yoppasiga bir yoki bir nechta, sanoqligina mahsulot yetishtirish anʼanaga aylanib qolgandi. Oqibatda qishloq xoʻjaligi sohasida urugʻlik topish va yerga qadashdan tortib, oziqlantirish hamda yigʻib olish va bozorga yetkazishgacha boʻlgan jarayon boshi berk koʻchaga kirib qolgandi.

Bir necha yil muqaddam barcha viloyat, shahar va tuman rahbarlari oldiga hududning oʻziga xos xususiyatini hisobga olib, "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida har bir mahallani muayyan yoʻnalishga ixtisoslashtirish, imtiyozli kreditni mavjud sharoit va oʻlamlarning xohish-istaklarini inobatga olgan holda ajratishga eʼtibor qaratish vazifasi qoʻyildi.

Endi mahsulot yetishtirishda hududlarning oʻziga xos xususiyatlariga alohida eʼtibor qaratila boshlandi. Natija uzoq kutmadi. Buning uchun urugʻlik, parvarishga muhit, yetishtirish uchun ishchi kuchi va mutaxassis, muhimi, bozor ham topildi. Har bir xonadonning aniqlangan drayverini harakatga keltirish, moliyaviy qoʻllab-quvvatlovdan tortib, mahsulotlarni sotishgacha boʻlgan jarayonda amaliy koʻmaklar berish anʼanaga aylandi.

Oʻz navbatida, tashabbuslar oilalarni qishloq xoʻjaligining muayyan turi bilan shugʻullanish, tadbirkorlikka undab, kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini taʼminlashdek muhim masalalar yechimida kutilgan samara bera boshladi. Hozir yerdan moʻl foyda



olib, roʻzgʻorini butlayotgan, uy qurib, toʻy qilayotganlar serob.

Surxon vohasida tomorqa egalari soni sezilarli oshib, hozir 483 mingtani tashkil qilyapti. Ularning umumiy yer maydoni 49 ming gektar. Shundan 2 ming gektarga bir martalik ekin ekilyapti. 12 ming gektarga yerga esa yiliga ikki marta ekin ekiladi. Xususan, 343 mingga tomorqaning 35 ming gektar yerga uch martadan ekin ekish yoʻlga qoʻyilgan. Jumladan, 42 ming gektarda bahorgi (ertaki), 45 ming gektarda takroriy (oʻrtangi), 44 ming gektarda toʻqsonbosti ekinlar parvarishlanayapti. Jami 131 gektarga almashlab ekin ekilyapti. Maʼlumotlarga koʻra, Surxondaryo viloyati joriy yilning shu davriga qadar Afgʻoniston, Pokiston, Rossiya, Gruziya, Qozogʻiston kabi 20 ga yaqin davlatga 256 ming 686 tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilgan.

Qumqoʻrgʻon tumani oʻziga xos goʻzal tabiati, subtropik iqlimi hamda ishbilarmon xalqi bilan viloyatning boshqa tumanlaridan alohida ajralib turadi. U yerda ham mahallalarni muayyan ekinga ixtisoslashtirish ishlari jadal davom etyapti. Tumanda tomorqa yer egalari soni 45 ming 458 nafar. Ularga qarashli jami ekin maydoni esa 6513 gektar. Tumanning drayveri sifatida sitrus mevalar, sabzi, sholgʻom, pomidor, bodring, tarvuz, qovun, kartoshka, sabzi jadal yetishtirilyapti.

Hududda 61 mahalladan 37 tasi sabzavot mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. Yana oʻnga yaqin mahalla esa tumanda istiqbolli yoʻnalish va yangilik sifatida biogumus tayyorlashga yoʻnaltirilyapti. Jumladan, Jiydali mahallasining drayveri — dehqonchilik va savdo-sotiq. Keyingi yillarda mahalladagi koʻplab xonadon egalari xorijga

borib mavsumiy ishlab kelishni yigʻishtirib, tomorqasidan samarali foydalanishni asosiy faoliyat turiga aylantirgan.

Jiydaliliklar imtiyoz va imkoniyatlardan unumli foydalangan holda ekinlarning sardaromad turlarini yetishtirish hadisini olgan. Masalan, shu mahallada istiqomat qiluvchi Muhabbat Mamanova xonadonidagi issiqxonada bulgʻor qalampiri yetishtirilyapti.

— Avvallari mahallada biror kishi yangi oʻsimlik olib kelib, yerga qadab, hosil olishga harakat qilsa, hamma oʻzini shu ishga urardi. Natija yaxshi boʻlmagandan keyin yerdan foyda yoʻq, deb, yelkasiga toʻrtasini osib chet elga ishga ketar edi, — deydi Muhabbat Mamanova. — Hozir unday emas. Koʻrib, bilib, ishlaganning biri ikki koʻlib, roʻzgʻoriga baraka kiriyapti. Birgina kichik issiqxonada yetishtirilayotgan bulgʻor



qalampiridan olayotgan yaxshigina daromadimiz bunga misol.

Mahallalarning ixtisoslashuvi aholining tomorqaga qiziqishini yanada oshirish barobarida bozorlarning toʻkinligini ham taʼminlamogʻda. Shaxsiy tomorqalarda yurtimiz va xorijda yetishtiriladigan ekin turlari parvarishlanayapti. Eʼtiborli jihati, issiqxonada va ochiq maydonda tomchilatib sugʻorish texnologiyasi joriy qilinyotir. Jiydali mahallasida ham ayni jarayonni kuzatish mumkin.

— Mahallada yer bilan tillashtgan tajribali dehqonlar koʻp. Hududning iqlim sharoiti ham yomon emas. Tuprugʻi unumdor. Aholining bor-yoʻgʻi 8-10 sotix tomorqadan olayotgan daromad haqida ehsitangiz, ishonmayisiz, — deydi "Jiydali" MFYdagi hokim yordamchisi

Zamira Abdunazarova. — Kichik maydondan katta foyda olish ortida ot bilan tuyra mehnatiga mengzaladigan, ogʻir mashaaqt ham bor. Tomorqada mehnat qilib naf koʻrayotganlar orasida ham oliy taʼlim olib, issiqxona yuritayotgan yoshlar koʻpchilikni tashkil qiladi.

Jiydali mahallasi aholisining bir yillik umumiy soʻf daromadi 1 milliard soʻmdan oshar ekan. "Izlagan imkon topar", deydi dono xalqimiz. Chindan ham, hududdagi har bir xonadonda har qarch yerga omikorlik bilan ishlov beriladi. "Har bir oila — tadbirkor" davlat dasturi doirasidagi imtiyozli kreditlar esa daromad tashpida koʻmak boʻlmoqda.

Maʼlumotlarga koʻra, Qumqoʻrgʻon tumani 2024-yil bahorgi mavsumida 2692 gektar maydonga meva-sabzavot ekilgan. Dehqon xoʻjaliklarini yanada qoʻllab-quvvatlash uchun ajratilayotgan imtiyozli kredit chin maʼnoda moliyaviy yordam boʻlmoqda. 2023-yilda 1 milliard 920 million soʻmga yaqin mablagʻ yoʻnaltirilgan boʻlsa, bu yil 2 milliard 400 million soʻmlik moliyaviy koʻmak berish rejalashtirilgan.

Vohada yerdan unumli foydalanish, hosildorlikni oshirish, ishlab qicharishni rivojlantirish borasida keng koʻlamli ishlar bajarilmoqda. Birgina bogʻdorchilik yoʻnalishini olsak, viloyatda hozir jami 5440 gektar intensiv bogʻ mavjud. Ularda yetishtirilayotgan meva mahalliy bozor rastalarini toʻldirish bilan bir qatorda xorijiy davlatlarga ham eksport qilinmoqda.

Qishloq xoʻjaligi yoʻnalishida ulkan salohiyatga ega Termiz tumanida ham katta tajribaga ega mirishkorlar bor. Hudud Surxon vohasining janubiy chekkasida joylashgani bois, meva-sabzavotlar koʻpincha ana shu yerda

Oʻsimliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti jamoasi tomorqalardagi issiqxonalarni bir yilda uch marta hosil olishga moslashtirish va mahsulotni quritib sotishga oid ilmiy yondashuvlar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish tashabbusi bilan chiqdi. Bir soʻz bilan aytganda, olimlar aholi tomorqasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi, pirovardida aholi daromadini oshirish kabi dolzarb muammolarga kompleks yondashib, ilmiy yechimlar taklif qilmoqda.

Bugun xonadonbay loyihalar dastlabki natijalarini bera boshladi. Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Namangan viloyati Yangiqoʻrgʻon tumanida bajarilayotgan "Tomorqa yer egalari xonadonlarida asosiy ekin sifatida kartoshkaning mahalliy "Oʻzbekiston qizili" va takroriy ekinda sholgʻomning "Muyassar" navlarini yetishtirib, urugʻchilikni yoʻlga qoʻyish asosida aholi daromadini oshirish" loyihasida birinchi ekindan moʻl hosil olindi. Ertabahorda 20 ta xonadonning 3 sotixdan yer maydoniga institutda yaratilgan kartoshkaning ertapishar "Oʻzbekiston qizili" va "Toshkent etkasi" navlari ekilgandi. Tomorqa egalari va olimlar tomonidan bir tekis unib chiqqan kartoshkalarga ushbu navlarga xos agroteknik tadbirlar hamda biometrik va fenologik kuzatuvlar, zararli organizmlarga qarshi profilaktik tadbirlar oʻtkazildi.

"Oʻzbekiston qizili" kartoshka navidan oʻrtacha bir tup oʻsimlikdan 1 kilogramm 955 gramm, yaʼni isteʼmol uchun 1 kilogramm 645 gramm, urugʻlik uchun 310 gramm hosil olindi. Bu har bir tomorqa egasi oʻrtacha isteʼmol uchun 2 tonna 200 kilogramm, urugʻlik uchun esa 180 kilogramm, gektariga hisoblaganda oʻrtacha 75-80 tonna hosilga ega boʻldi, degani.

"Toshkent etkasi" navi boʻyicha esa oʻrtacha bir tup oʻsimlikdan 2 kilogramm (isteʼmol uchun 1 kilogramm 750 gramm, urugʻlik uchun 300 gramm), yaʼni bitta xonadon isteʼmol uchun oʻrtacha 2 tonna 400 kilogramm, urugʻlik uchun 175 kilogramm kartoshka, gektariga hisoblaganda oʻrtacha 80 tonna hosil olishga erishildi.

Albatta, bu kabi natijalar dehqonlarning mahalliy navlarga ishonchini mustahkamlab, kelgusi yil uchun urugʻlik xaxirasi tayyorlash, ortiqchasini qoʻni-qoʻshnisi, qarindosh-urugʻlarga tarqatishga imkon beradi. Ayni paytda kartoshkadan boʻshagan maydonga bodring koʻchatlari ekilib, parvarishlanmoqda. Bodring hosili yigʻib olinganidan soʻng sholgʻomning tezlashar va serhosil mahalliy "Muyassar" navini ekish rejalashtirilgan.

Agrar sohaga ilm-fan yutuqlari va innovatsion yechimlarni tatbiq etmay turib, mahsulot hajmi va aholi daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash imkoniz. Xonadonbay loyihalar ana shu maqsadni amalga oshirish uchun taklif qilinyotgan ilgʻor tashabbuslardan biridir.

Zero, shu paytga qadar ilm ahli qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning eng quyi boʻgʻini bilan hamkor, hamqadam va natijadan birdek manfaatdor boʻlib ishlamagandi. Yangi mexanizm olimlar jamoasi va tomorqa yer egalari tomonidan birdek qiziqish bilan qabul qilingani, dastlabki natijalar quvonarli ekani bu tashabbus samarali va ahamiyatli boʻlishidan dalolat beradi.



erta pishib yetiladi. Tuman shaftoli yetishtirish uchun ham unumdor tuproq va qulay iqlim sharoitiga ega. Yetishtirilayotgan oʻrik, shaftoli, qovun-tarvuz kabi meva va poliz mahsulotlari oʻzgacha taʼmida va darmondoriga boyligi bilan jahon bozoriga xaridor.

Shu kunlarda tumandagi 30 gektar maydonda serhosil "Anjir" navli shaftoli hosili yigʻib olinmoqda. Gretsiyadan keltirilgan bu navli daraxting har tupidan 20-25 kilo hosil olish mumkin. Mirishkorlar hudud imkoniyatidan samarali foydalangan holda intensiv usulda, serhosil va istiqbolli shaftoli navlarini yetishtirib, moʻl hosil olmoqda. Shaftolidan olinayotgan hosilning ham 80 foizi eksportga va 20 foizi ichki bozorga yoʻnaltirilmoqda.

— Pishib yetilgan mevani oʻz vaqtida sifatli terib olish uchun 200 ga yaqin kishi ishga jalb etilgan. Bu esa hudud aholini mavsumiy ish bilan taʼminlash va daromadini oshirishga xizmat qilaypti, — deydi ish boshqaruvchi Otabek Soliyev.

Sarxil meva-cheva bozorlar va dasturxonlarimiz toʻkin-sochinligini taʼminlash bilan birga yurtimizdagi yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining jahon bozorida sifat brendiga aylanishiga xizmat qiladi.

Sarvar TOʻRAYEV,
"Yangi Oʻzbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Iqtidor va izlanish

Yuksalish pallasi

Frilanserlik: BUYURTMALARNI YASHIRINCHA QABUL QILMASLIKNING YO‘LI BOR



Prezidentimiz raisligida joriy yil 28-iyun kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga oid videoselektor yig‘ilishida bildirilgan tashabbuslar samarador sa‘y-harakatlarning davomi bo‘ldi. Unga ko‘ra, davlatimiz rahbari bugun axborot texnologiyalari sohasida o‘zini o‘zi band qilgan yoshlar soni 50 mingdan oshganini ta‘kidlab, qo‘shilgan qiymat yaratib, xizmatlarni eksport qilayotgan bunday yoshlar uchun katta imkoniyatlar berilishini ma‘lum qildi.

Xususan, 1-avgustdan boshlab, bu sohada o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarga Axborot texnologiyalari parki rezidenti maqomi beriladi. Ular uch yil muddatga barcha soliqdan ozod qilinadi. Park tomonidan ularga tibbiyot, sport va ofisdan foydalanishi uchun “ijtimoiy karta” taqdim etiladi.

Xo‘sh, Axborot texnologiyalari parki rezidenti bo‘lish qanday qulayliklar beradi? it-park.uz saytida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, rezidentlar 7,5 foizlik daromad solig‘i to‘laydi. Shuningdek, ularga korporativ soliq hamda yagona ijtimoiy to‘lovning nol foizi qo‘llanadi. O‘z ehtiyoji uchun zarur tovarlar olib kirishda bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi. Shu bilan birga, rezidentlar 15 metr kvadrat maydonga esa ofis xonalari bilan ta‘minlanib, ijara haqini ham subsidiyalangan miqdorda to‘laydi.

Axborot texnologiyalari sohasida o‘zini o‘zi band qilgan yoshlar uch yil muddatga barcha soliqdan ozod qilinishi esa sohaga endi kirib kelayotgan yoshlar tomonidan katta yangilik tariqasida qabul qilindi. Bu degani ular 3 yil majmua rezidentlari uchun belgilangan 7,5 foizli soliqdan ham ozod etiladi.

— Bu sohaga qiziqishim dastlab telegram platformasida bot yasashdan boshlangan. Keyinchalik turli kurslar va internetdagi darsliklar orqali axborot texnologiyalarini

Bugun axborot texnologiyalari sohasi barcha tarmoqqa chuqur kirib, texnologik rivojlanishning drayveri sifatida e‘tirof etilyapti. Davlatimizda ham bu xalqaro tendensiyaning ahamiyatini to‘g‘ri anglab, sohaga keng imkoniyatlar taqdim etishga allaqachon kirishilgan. Axborot texnologiyalari rivoji mamlakatning raqamlashuvini oshirib, iqtisodiyot ravnaqiga hissa qo‘shadi. Soha o‘ziga xos magnit sifatida O‘zbekistonda turib, dunyo bo‘ylab mamlakatga mablag‘ tortadi.

yaxshiroq o‘rganishga kirishdim. Bu — ishini yaxshi bilgan, tajribasi yuqori bo‘lgan kishi uchun eng daromadli sohalardan biri. Biroq siz rasmiy tarzda faoliyat yuritmaguningizcha katta-katta buyurtmalar qabul qila olmaymiz. Ya‘ni buyurtmachilar siz bilan ishlashdan cho‘chiydi. Shu bois, ba‘zi buyurtmachilar xuddi shunday yoshlarni qidirib topib, loyihalarini arzonarovga bajartirishga harakat qiladi. Yosh dasturchi nima qilsin, ish topilavermagandan keyin shunday buyurtmachilar bilan ishlash yuraveradi-da, — deydi yosh dasturchi Arsen Yomg‘irov. — To‘g‘risi, yaqindagina sohada o‘zini o‘zi band qilgan yoshlar 3 yil muddatga barcha soliqdan ozod etilishi haqidagi yangilikni o‘zim uchun katta imkoniyat sifatida qabul qildim. Nasib etsa, endi rezident bo‘lib, faoliyatimni kengaytirmoqchiman. O‘zim kabi o‘nlab yoshlarni bir jamoaga yig‘ib, nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo bo‘ylab buyurtmalarni bajarish orqali vatanimizda bu soha rivojiga hissamni qo‘shmoqchiman.

Diqqat bilan jamiyatga razm solsak, odamlar buyurtma borasida ikkiga bo‘linadi: bir tomon bajaruvchining qonuniy va sifatli faoliyat yuritishiga e‘tibor bersa, ikkinchi tomon narx-navoga ahamiyat qaratadi. Ammo narx-navoga qarovchilar soni ikkinchi tomonga nisbatan ko‘proq. Bu balki me‘yoriy jarayondir, biroq sifati xizmatni doim ham arzonarovga savdolashish qiyin. Sababi sifatli xizmat ko‘rsatish hamisha mehnat va mashaqqat talab etadi. Endi o‘ylab ko‘raylik, sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega dasturchilar nega yarim narxiga ham buyurtmalar qabul qilishga majbur bo‘ladi? Yuqorida yosh dasturchi Arsen Yomg‘irov ta‘kidlaganidek, rasmiy faoliyat yuritishga ikkilangan tufayli.

Bayramali Ro‘ziyev hozir talaba. Biroq sohada allaqachon yetarlicha tajriba o‘rtirib ulgurgan. Shu paytgacha u uchun mahalliy buyurtmalardan ko‘ra, xorijiy buyurtmalar ancha afzal bo‘lib kelayotgan edi.

— Internetdagi Upwork va shunga o‘xshash frilanserlik platformalarida ishlab, ozmi-ko‘pmi daromad topaman, — deydi Bayramali Ro‘ziyev. — Biroq bu platformalardagi buyurtmachilar ham to‘g‘ri kelgan dasturchilarga katta-katta buyurtmalar berib ketavermaydi. Qanday huquqiy asoslarga ko‘ra faoliyat yuritassiz, o‘zi sizga ishonsa bo‘ladimi, degan savollar bilan isbot talab qiladi. Shuningdek, ularning ko‘pi xizmat haqini ishini to‘liq yakunlaganingizdan so‘ng berishga kelishmoqchi bo‘ladi. Loyihani bajarish davomida sizdan qo‘shimcha xarajat talab etilsa, uni o‘z yoningizdan to‘lashingiz kerak. Men kabi yosh dasturchilar bu mablag‘ni har doim ham topavermasligi mumkin. Shuning uchun kichik buyurtmalarni bajarib yurishga majbur bo‘lamiz.

Frilanser sifatida ishlovchi dasturchilarning aytishicha, chet ellik buyurtmachilarning ko‘pi ish haqini bank hisobraqamiga yuborar ekan. Qonunchilikka ko‘ra, qarindosh bo‘lmaganlardan pul o‘tkazmalarini qabul qilish deklaratsiya asosida hisoblangan daromad solig‘i solinishiga sabab bo‘ladi. Demak, joriy yil 1-avgustdan boshlab o‘zini o‘zi band qilgan mutaxassislar rezident maqomiga ega bo‘lgach, frilanserlik orqali xorijiy buyurtmalarni bajarishidan hisoblanadigan soliqlardan ham ozod etilishi kerak. Aslida ham shundaymi? Mutasaddilar masalaning ushbu tomonini ham inobatga olib, bu bo‘yicha tushuntirish bersa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarni 3 yil muddatga barcha soliqdan ozod qilish tashabbusi ularni yashirincha buyurtmalar bajarib yurishdan ham xalos qiladi. Ba‘zilar aytishicha, kichik buyurtmalar bilan ishlovchi ayrim dasturchilar dastlabki kelishuvda buyurtmachilarga xizmat haqini naqd pul shaklida berish talabini ham qo‘yar ekan. Ular qandaydir qo‘rquv tufayli naqd pulda oldi-berdini afzal bilarkan. Biroq bunday xatti-harakati orqali qaysidir ma‘noda yashirin iqtisodiyotga daxldor qilmishlar sodir etayotganidan xabardormikan? Savol-javoblar ularning aksariyati bundan bexabarligini ko‘rsatadi. Demak, axborot texnologiyalari sohasiga endigina kirib kelib, o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarga berilayotgan imtiyozlar to‘liq o‘zini oqlaydi. Ya‘ni ular rezident maqomini olgach, qonunchilik bilan ham atrofiicha tanishadi, o‘zaro shartnomalar sharti bo‘yicha tushunchaga ega bo‘ladi. Natijada bilib-bilmay yashirin iqtisodiyotga aralashuv holati keskin kamayadi. Eng muhimi, bexavotir faoliyat yuritib, soha rivojiga baholi qudrat hissa qo‘shadi.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

SOF FOYDANI 1 MILLION DOLLARGA YETKAZAMIZ

Komron XOLMUHAMMEDOV,
“NNT Express Inc” MCHJ direktori

2019-yili Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filialiga o‘qishga kirdim. O‘qish bilan birga logistika outsorsingini o‘rgana boshladim. Soha sirlarini chuqur o‘zlashtirishimda amakimning ko‘magi katta bo‘ldi. U zarur barcha shart-sharoit — ofis va kompyuter jihozlari bilan ta‘minladi, mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish yo‘llari, odamlar bilan muloqot madaniyatini o‘rgatdi. Tez orada kichik jamoa tuzdim. Sheriklarim o‘zim kabi axborot texnologiyalari sohasida o‘qiyotgan yoshlar edi. Biz kunni tunga ulab ishlay boshladik.



2022-yil logistika outsorsingi o‘quv markazini ochdik. Ishlarimiz bir maromda ketdi. 2023-yilda o‘qishni bitirgach, “NNT Express Inc” MCHJ direktori lavozimiga tayinlandim. Asta-sekin xorijiy kompaniyalar bilan shartnoma tuza boshladik. O‘sha yili Qashqadaryo viloyati hokimligi vakillari Axborot texnologiyalari parkiga a‘zo bo‘lish va zamonaviy ofisdan foydalanish taklifi bilan chiqdi. Biz taklifni mamnuniyat bilan qabul qildik. Muassasada yaratilgan shart-sharoit tez orada samara berdi. Jamoamiz kengaya boshladi. AQSH va Yevropadagi “Amazon”, “J.B.-HUNT”, “C.H.Robinson” kabi jami 2000 dan ortiq korxonalar 15 million dollarlardan ortiq shartnoma imzolashga ko‘maklashdiki. Shu kunga qadar AQSHga 685 ming dollar qiymatida xizmatlar eksport qildik. Bu yilgi rejamiz — shu raqamni 1 million dollarga yetkazish.

Joriy yil 24-mayda Qashqadaryo viloyati hokimligi va park tashabbusi bilan Seulda bo‘lib o‘tgan “Uzbekistan Outsourcing Conference” tadbirida ishtirok etdik va Janubiy Koreyaning Coconut Silo korxonasi bilan ushbu sohada hamkorlik qilishga kelishib oldik. Hozir korxonamizda axborot texnologiyalari va logistika yo‘nalishida 60 dan ortiq xodim faoliyat yuritib kelmoqda. Safimiz kengayayotganidan juda xursandman. Chunki yangi ish o‘rinlari yarataymiz, nogironligi bor shaxslar ishlashi uchun ham sharoit qilyapmiz. Bularning barchasi

davlatimizning bir — yoshlarga ishonchi, navqiron avlod vakillari uchun yaratilgan imkoniyatlar natijasi, deb bilaman.

Yaqinda Yoshlar kuni oldidan viloyat hokimligi vakillari Prezidentimiz raisligida o‘tkaziladigan videoselektor yig‘ilishida ishtirok etishimni aytdi. Bunday yig‘ilishda ilgari ishtirok etmaganim uchun qattiq hayajonlandim. Yig‘ilishda davlatimiz rahbari nomimni aytib chaqirganida avvaliga o‘zimni bir oz yo‘qotib qo‘ydim. Faoliyatimiz va erishgan natijalarimiz haqida gapirib berarkanman, qalbidam cheksiz minnatdorlik hissiini tuydim. Ayniqsa, Prezident e‘tirofi va o‘q‘llab-quvvatlashi kishiga cheksiz faxr va ishonch berarkan.

Logistika bugun iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning asosiy biznesiga aylanib ketgan. O‘zbekiston ham bu tendensiyaning chetida emas. Sohaga qaratilayotgan e‘tibor natijasida logistika kompaniyalari soni yildan yilga ortib borayotir. Ammo men ularni raqobatchi sifatida ko‘rmayman. Outsourcing bozorida Hindiston, Bolqon davlatlari yaxshi raqobatchi bo‘lishi mumkin. Biroq biz ham bo‘sh kelmaymiz. Xorijlik yetuk mutaxassislarni korxonamizga ishga taklif etish, xodimlarimizni chet elda malaka oshirishga yuborish niyatidamiz. Bu borada muzokaralar olib borilyapti. Malakali, zamonaviy bilim va salohiyatga ega mutaxassislar ertaga korxonamiz yanada kengayishi, raqobatbardosh, yirik kompaniyalardan biriga aylanishiga zamin tayyorlaydi.

Sport

Jamiyat rivojining asosiy belgilaridan biri birdamlikdir. Buni har bir kishi tarixiy davlatchilik bosqichlari haqidagi ma‘lumotlarda va bugungi zamon qiyofasida ko‘rib, anglab turibdi. Jamiyatning eng quyi bosqichi — oiladan davlatchilikning asosiy bo‘g‘inlarigacha bo‘lgan jarayonning barchasida birlik tushunchasi muhim ahamiyatga ega.

Yurtimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iqtidor va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimiz istiqbolli yo‘lida bor mas‘uliyatni yelkasiga olgan, tashabbuskor va shijoatli yoshlarni maydonga olib chiqmoqda.

Joriy yil 25-iyun — 7-iyul kunlari Rossiyaning Yakutsk shahrida “Osiyo bolalari” VIII sport o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. Unda 30 jamoa tarkibida 2000 ga yaqin sportchi ishtirok etdi. 14-17 yosh toifasida 176 sportchimiz mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qildi. Vakillarimiz sportning 11 ta olimpiada va 5 ta noolimpiada turi bo‘yicha imkoniyatini sinovdan o‘tkazdi.

Yurtdoshlarimiz musobaqada 88 ta (36 oltin, 31 kumush, 21 bronza) medalni qo‘lga kiritdi. O‘zbekiston sport delegatsiyasi mustaqil jamoa sifatida 30 yildan ziyod davr mobaynida ilk bor kompleks sport o‘yinlarida tarixiy g‘alabaga erishdi. Mamlakatimiz sportchilari “Osiyo bolalari” o‘yinlarida umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egalladi. Ayniqsa, 5 ta jamoaviy sport turi (boks, dzyudo, kurash, sport kurashlari,



BIZ G‘OLIBMIZ!

taekvondo) bo‘yicha ham yurtlarimizga teng keladigan topilmadi.

Bu g‘alaba uchun birgina iqtidorning o‘zi yetarli emasligini ko‘pchilik anglab, his qilib turibdi. Shuncha ishtirokchi qatnashgan turnirda umumjamoa hisobida birinchi bo‘lish mashaqqatini ko‘z oldingizga keltirib ko‘ring. Buning ortida, birinchi navbatda, davlatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport, alohida sport turlariga e‘tibor, sport ta‘limini yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida qabul qilingan qarorlar, ko‘rilgan chora-tadbirlar, ishlab

chiqilgan dasturlar turgani yaxshi ma‘lum.

Sportchilar Toshkent xalqaro aeroportida munosib kutib olindi.

— O‘zbekiston sport delegatsiyasining musobaqadagi natijasi barchamizni xursand qildi, albatta. Vakillarimiz yengil atletika, basketbol, mas-restling, suzish, badiiy gimnastika, boks, voleybol, mini futbol, taekvondo, dzyudo, kurash, suzish, sambo, o‘q otish, kamondan otish, shaxmat bo‘yicha salohiyatini namoyish etdi. Mazkur o‘yinlar orqali jamoalar, sportchilarning imkoniyati,

texnik-taktik holati yana bir bor sinovdan o‘tkazildi. Bu “Toshkent-2025” Osiyo o‘yinlariga tayyorgarlik vazifasini o‘tadi, — dedi sport vaziri maslahatchisi Sharifjon Mo‘minjonov.

Bu g‘alabali yurish qatnashchilari 14-17 yosh oraliq‘idagi o‘g‘il-qizlardir. Ular shu yoshdagi qalqimiz va ota-onasining ishonchini oqladi.

— Qizim Maftuna Musurmonova Yakutskdan oltin medal bilan qaytdi. Bundan juda xursandmiz, faxrlanamiz. Kelajakda qizimdan

katta-katta yutuqlar, olimpiada o‘yinlari chempionligini kutib qolaman. Yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, hamisha g‘olib bo‘lib yurishiga ishonaman, — deydi Matluba Xudoyqulova.

Bugun mamlakatimizning eng chekka hududlarida istiqomat qilayotgan, farzandining kelajagini shu yurt bilan bog‘lagan ota-onalar qalbidagi yangi zamon shukhi kezip yurganini hamma bilib, ko‘rib turibdi. Buni birgina ushbu musobaqada qatnashgan sportchilarning ota-onalari timsolida ham ko‘rish mumkin.

— “Osiyo bolalari” o‘yinlaridagi ajoyib kunlar ortda qoldi. Vatanga medallar bilan qaytdik, jamoa bilan g‘oliblikni tantana qildik. Bu an‘anani kelgusi musobaqalarda, jahon va qit‘a chempionlarida, olimpiya o‘yinlarida davom ettiramiz, — deydi taekvondo musobaqalari g‘olibi Behruz Salimov.

Yuqori natijaga erishgan sportchilarning qariyb yarmi olimpiya va parolimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari o‘quvchilardir. Ular kelgusi yili Toshkent shahrida yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan Osiyo o‘yinlarida ishtirok etadigan asosiy kontingent.

Bugungi g‘alabalar ertangi kunning azmu shijoatini belgilab beradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoshlar qalbidagi g‘alaba sururi ortidan kelajakka ishonch yuksalib, davomiy g‘alabalarga zamin yaraladi. Bir so‘z bilan aytganda, g‘oliblik qonida bo‘lgan xalq orasidan g‘oliblar chiqaveradi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yangi O‘zbekiston ruhi




Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, buyuk ajdodlarimizning tengsiz madaniy merosi insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Bu ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar bugun dunyoning turli hududida, xorij to‘plamlari, jamg‘armalari, kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda.

Sharq Uyg‘onish davri — Musulmon Renessansi paytida bugungi O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani va madaniyati, muqaddas islom dini rivojiga qo‘shgan bebaho hissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Xususan, IX-XI asrlarda Xorazmda tashkil etilgan Ma‘mun akademiyasi, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug‘bek ilmiy maktabi, Xurosonda Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro singari buyuk ajdodlarimiz shakllantirgan madaniy muhitning ulug‘ vakillari boy ma‘naviy merosi bilan jahonga davo taratgan.

O‘rta asrlarning ilk davrida ulug‘ ajdodlarimizning matematika, astronomiya,



Toshkentda O‘zbekiston olimlarining “Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans poydevori” forumi o‘tkazildi



fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi fanlar bilan birga, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat va san‘at, arxitektura o‘ld olamshumul ilmiy g‘oya va kashfiyotlari jahon ilm-fani va tamadduni rivojida keskin burilish yasanagan.

Bugun shiddat bilan takomillashayotgan axborot texnologiyalari sohasining tamali buyuk bobimiz Muhammad Xorazmiy asos solgan sanoq tizimiga borib taqalishi, ulug‘ hakim Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari Germaniyada ixtiro qilingan matbaa uskunasi bosilgan ilk kitoblardan biri ekani, G‘arb olimlari XI asni Abu Rayhon Beruniy asri deb atagani, 1492-yilda Xristofor Kolumb aynan Ahmad Farg‘oniyning Yerning darajasini aniqlash haqidagi hisob-kitoblari asosida Amerika sohillariga yetib borgan kabi o‘nlab dalillar allomalarimizning boy aql-zakovati va idrokidan dalolat beradi.

Buyuk merosga munosib ehtirom

Milliy tarixi va madaniyatiga, intellektual va ma‘naviy salohiyatiga chuqur hurmat bilan yondashish, asrab-avaylash va boyitish, yosh avlodni milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat hamda jamiyatning moddiy va ma‘naviy taraqqiyotida hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Prezidentimizning 2017-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qo‘rarori bu masalada qo‘yilgan ulug‘ qadamlardan biri bo‘ldi.

— Qaror e‘lon qilinishi bilan muhtasham markazni barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlandi, — deydi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduxolliqov. — Poytaxtimizning qadimiy ma‘naviy maskanlaridan biri — “Hazrati Imom” majmuasiga yondosh qariyb 10 gektar maydonda uch qavatli markaz majmuasi qadimiy madrasalar uslubida qurilmoqda. U ming yillar ilgari ota-bobolarimiz asos solgan tamaddunlar hamda ularning mantiqiy davomi bo‘lgan yangi O‘zbekistonning ilmiy, madaniy-ma‘rifiy salohiyatini jahonga namoyon qilishi lozim. Mamlakatimiz olimlari birinchi forumini o‘tkazishdan asosiy maqsad bu boradagi tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish, ulardan markazimiz faoliyatini mustahkamlash va boyitishda samarali foydalanishdan iborat.

Markazdan muzey va kutubxona, anjumanlar zali, ajdodlarimizning ilm-fan rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi va me‘morlik an‘analariga bag‘ishlangan ko‘rgazma zallari, axborot-resurs markazi, akademiya, arxiv va qo‘lyozmalar fondi o‘rin oladi. Kutubxona va fondlarni mamlakatda va chet elda saqlanayotgan qadimiy qo‘lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy hujjatlar, arxeologik topilmalar, osori atiqalar, zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, video va foto hujjatlar bilan boyitish, 300 o‘rinli konferensiya zali barpo etish ham ko‘zda tutilgan.

Ayni paytda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu muassasalarda buyuk allomalari va izdoshlari merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu, umuminsoniy g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ma‘naviy va ma‘rifiy qarashlarimizga yot, zararli ta‘sirlardan asrab-avaylash bo‘yicha sezilarli ishlar bajarilmoqda.

Haqqoniy e‘tirof

Mahalliy va chet ellik mutaxassislarni keng jalb etgan holda ilmiy tadqiqot ishlari keng yo‘l ochish, Musulmon Renessansi davrida ilm-fan, madaniyat va san‘at, me‘morlik



rivoji to‘g‘risida keng qamrovli ma‘lumotlar berish, dinlar va tamaddunlararo muloqotni samarali yo‘lga qo‘yish uchun UNESCO, ISESCO, IRCICA kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatish, diniy ta‘lim muassasalariga ilmiy-tadqiqot va o‘quv-uslubiy masalalarda hamda o‘qituvchi va diniy xodimlar malakasini oshirib borishda amaliy yordam ko‘rsatish ham markazning asosiy vazifalaridan.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish mamlakatimizga tashrifi chog‘ida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo‘lib, bu yerdagi bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishdi. Yurtimizda madaniy merosni asrab-avaylash va targ‘ib qilishga qaratilayotgan e‘tiborga yuqori baho berdi. Shuningdek, beqiyos ma‘rifat maskanining kelgusidagi faoliyati bilan qiziqdi. Martabali mehmon tashrif chog‘ida bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti, Markaziy Osiyo mintaqasidagi birlashtiruvchilik roli haqida to‘xtalib,

tashvishga solmoqda. Ana shunday bir paytda mamlakatingiz rahbari boshchiligidagi katta ilmiy-ma‘rifiy muassasaning barpo etilishi, islomning asl mazmun-mohiyatini ifodalashga harakat qilinishi juda ulug‘ ishdirdi”, dedi Antoniu Guterrish.

Ezgu maqsad yo‘lidagi hamkorlik

Markazning doimiy hamkorlari orasida 40 dan ortiq mamlakatdan 350 dan ziyod malakali olim, sharqshunos, etnograf va tarixchilarni o‘zida birlashtirgan O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha butunjahon jamiyati (WOSCU)ni alohida ko‘rsatish joiz.

Markaz bilan deyarli bir paytda ish boshlagan mazkur jamiyat tomonidan ayni paytda qadar O‘zbekiston madaniy merosini tadqiq etish bilan bog‘liq yettita xalqaro kongress, yuzdan



Olimlarni birlashtirgan anjuman

Kuni kecha 500 ga yaqin sharqshunos, tarixchi, qur‘onshunos, etnograf, san‘atshunos olimlar, tadqiqotchi va ekspertlar ishtirokida bo‘lib o‘tgan “Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans poydevori” mamlakatimiz olimlari forumida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining maqsad va vazifalari, kelgusi rejalar, hamkorlikdagi loyihalar muhokama qilindi. Ishtirokchilar to‘qqiz sho‘baga bo‘lingan holda ma‘ruza va loyihalarini, taklif va mulohazalarini bayon etdi.

Forumda taqdim qilingan har bir loyiha bo‘yicha olimlar ishtirokida muhokamalar tashkil etilib, ishtirokchilar fikr-mulohazalari tinglandi. Bildirilgan taklif va tavsiyalar umumlashtirilib, yaxlit hujjat shaklida tashkiliy qo‘mitaga taqdim etildi.

— Ushbu forum barcha ishtirokchilar qatorida biz, tarixchilar, muzey xodimlarini ham xursand qildi, — deydi Shahrisabz shahri muzey-qo‘riqxonasini rahbari, tarix fanlari doktori Nabi Xushvaqov. — Anjumanda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyi fondining

“AFSUSKI, SO‘NGGI YILLARDA DUNYODA ISLOMOFOBİYANING TURLI KO‘RINISHLARI BILAN TO‘QNASH KELMOQDAMIZ. BU BIZNI QATTIQ TASHVISHGA SOLMOQDA. ANA SHUNDAY BIR PAYTDA MAMLAKATINGIZ RAHBARI BOSHCHILIGIDA KATTA ILMIY-MA‘RIFIY MUASSASANING BARPO ETILISHI, ISLOMNING ASL MAZMUN-MOHİYATINI IFODALASHGA HARAKAT QILINISHI JUDA ULUG‘ ISHDIR”, DEDI ANTONIU GUTERRISH.

Forumda taqdim qilingan har bir loyiha bo‘yicha olimlar ishtirokida muhokamalar tashkil etilib, ishtirokchilar fikr-mulohazalari tinglandi. Bildirilgan taklif va tavsiyalar umumlashtirilib, yaxlit hujjat shaklida tashkiliy qo‘mitaga taqdim etildi.

asosli tarixiy eksponatlar bilan boyitilishi bo‘yicha ham qator takliflar ilgari surildi. Shu bilan birga, faoliyatimiz uchun zarur tajriba va xulosalarga ega bo‘ldik. O‘ylaymanki, bu anjuman yurtimiz tarixi va madaniyatini o‘rganish, tadqiq qilishda o‘ziga xos hodisa bo‘ladi.

Forumda xorijlik mutaxassislar ham mavzu yuzasidan taklif va mulohazalarini bildirdi. — Shu paytda qadar 50 dan ortiq mamlakatda o‘tkazilgan turli ilmiy yig‘in va anjumanlarda ishtirok etganman, — deydi Turkiyaning Tekirdag‘ universiteti professori Xolid Eren. — Ammo bugungi forumda olimlarning uyushqoqligi, yurt taqdiri, tarixi, xalqning madaniy merosini o‘rganishga yuksak darajadagi intilishi meni nihoyatda mamnun qildi. Bu masalaga bevosita davlat rahbarining katta e‘tibori qaratayotgani chinakam e‘tirofga molik. Men ham o‘zbek hamkasblarim bilan ikki kun hamsuhbat bo‘ldim, mavzu va loyihalar bo‘yicha fikrlarimni bildirdim. Forum jonli bahs-munozaralari, yorqin lahzalari bilan menda o‘chmas taassurot qoldirdi.

Ilmiy anjumaning ikkinchi kunida forum yalpi yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilish avvalida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi haqidagi hujjatli film namoyish etildi. Sho‘ba yig‘ilishlari bo‘yicha yakuniy xulosalar bildirildi. Forum natijalari bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tayyorlagan deklaratsiya va “yo‘l xaritasi”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga ilmiy jamoatchilikning murojaati qabul qilindi.

“O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi kelgusida xalqimiz va, ayniqsa, yoshlarimizning ongu tafakkurini, qalbi va ruhini yuksaltirib, Uchinchi Renessans bunyodkori etib tarbiyalashga, yangi O‘zbekistonning o‘ziga xos ma‘naviy ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladigan betakror maskanga aylantirish bo‘yicha Sizning ko‘rsatmalaringiz asosida barcha maqsad va vazifalarni aniq belgilab olganimiz, hech shubhasiz, faoliyatimiz samarasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi”, deyiladi murojaatda.

Shu tariqa ikki kun davom etgan “Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans poydevori” forumi yakuniga yetdi. Biroq ajdodlarimiz merosini o‘rganish, targ‘ib etish, bu yo‘nalishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, ezgu maqsadlar sari intilishlar davom etadi.

Rustam JABBOROV,
O‘zbekiston madaniy merosini asrash, o‘rganish va umumlashtirish bo‘yicha butunjahon jamiyati ilmiy maslahatchisi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2335.

42368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘ZA yakuni — 23:28 Topshirildi — 23:35